

FORSAYT YONDASHUVI ASOSIDA PEDAGOGLAR FAOLIYATINI KELAJAK EHTIYOJLARGA MOSLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SPECIFIC FEATURES OF ADAPTING PEDAGOGICAL ACTIVITIES TO FUTURE NEEDS BASED ON THE FORESIGHT APPROACH

СПЕЦИФИКА АДАПТАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ К БУДУЩИМ ПОТРЕБНОСТЯМ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА ФОРСАЙТ

Oripova Nozima Shuhratovna

Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markaz direktori

Annotatsiya: ushbu maqolada forsayt yondashuvi asosida pedagoglar faoliyatini kelajak ehtiyojlarga moslashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan bo‘lib, unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining natijalari hamda muammoga doir olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tahlili keltirib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada forsayt yondashuvning ta’lim tizimi va pedagoglar faoliyatiga ta’siri, jamiyat va ta’lim tizimida pedagoglarning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: forsayt yondashuv, ta’lim tizimi, shaxs, pedagogik faoliyat, tizimli yondashuv, samaradorlik, metod, xilma-xillik, raqamlashtirish, o‘zgaruvchan.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности адаптации профессиональной деятельности педагогов к будущим потребностям на основе форсайт-подхода; представлен анализ результатов проводимых в стране образовательных реформ и соответствующих научных исследований. Также обсуждаются влияние форсайт-подхода на систему образования и работу педагогов, а также факторы, воздействующие на деятельность педагогов в контексте общества и образовательной системы.

Ключевые слова: форсайт-подход, система образования, личность, педагогическая деятельность, системный подход, эффективность, метод, разнообразие, цифровизация, динамичность.

Abstract: Abstract: The article discusses the specifics of adapting the professional activities of teachers to future needs based on the foresight approach; an analysis of the results of educational reforms and relevant scientific research carried out in the country is presented. The impact of the foresight approach on the education system and the work of teachers, as well as factors affecting the activities of teachers in the context of society and the educational system, are also discussed.

Keywords: Key words: foresight approach, education system, personality, pedagogical activity, system approach, efficiency, method, diversity, digitalization, dynamism.

Kirish. Mamlakatimizda raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy va zamonaviy tuzilmasini yaratish yo‘lida tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta bu yutuqlarni qo‘lga kiritishda

mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator meyoriy hujjatlarning ahamiyati kattadir. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 4623-sonli qarori, 2022 yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 289 – sonli qarori va 2024 yil 21 iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-231-son qarori va boshqa meyoriy hujjatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar ham mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Keyingi yillarda respublikamiz olimlaridan M. Ochilov, R. Djurayev, N. Muslimov, R.Shodiyev, S.Qahhorov, R.X.Fayzullayev, X.A.Yulbarsova, D.A.Mustafojeva, X.Xudayqulov, O.Musurmonova, M.Urazova, D.Himmataliyev, Sh. Nurullayeva, N.Oripova, O. Haydarova, O.Aslanova, U.L. Yoziyevlar tomonidan pedagogik ta’lim sohasining didaktik imkoniyatlarini yanada kengaytirish, mazmunini zamonaviylashtirish borasida jadal ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

R. Djurayev, N. Muslimovlarning ilmiy izlanishlarida pedagoglarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berildi.

M. Ochilov ilmiy izlanishlarida oliy maktab pedagogikasining zamonaviy didaktik imkoniyatlarini ochib bergan bo‘lsa, O. Haydarova pedagogik ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqadi.

R.Shodiyeva, Sh. Nurullayeva, N. Oripovalar ilmiy izlanishlarida pedagogik ta’limni turli modellar asosida tashkil etish, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy e’tiqodini rivojlantirish masalasi dolzab muammo sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Forsayt yondashuv asosida pedagoglar faoliyatini samarali tashkil metodologiyasi yagona metodologiyaga asoslanmaydi, balki u turli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Uning asosida pedagogik ta’limni kelajak bilan hamohang ravishta tizimli o‘rganish, ehtimoliy o‘zgarishlarni bashorat qilish va natijaviy qarorlarni asoslashdan iboratdir.

Forsaytning asosiy metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

Tizimli yondashuv – bu o‘rganilayotgan hodisa, jarayon yoki obyektning bir-biri bilan bog‘langan qismlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida tashkil etish hamda maqsad, mazmun, metod, vosita, pedagogik shart-sharoitlar, faoliyat, monitoring va natijalarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Uning tarkibiy qismlari yaxlilik, o‘zaro aloqadorlik, izchillik kabilar hisoblanadi.

Strategik yondashuv – ta’lim jarayonni aniq yo‘nalish va harakatlar tizimi asosida belgilashga xizmat qiladigan yondashuv hisoblanib, u o‘z ichiga uzoq muddatli maqsadga erishish yo‘llarini ishlab chiqishni va bunda mavjud imkoniyatlar, resurslar, shart-sharoit va ehtimoliy o‘zgarishlarni hisobga olishni talab etadi.

Strategik yondashuvning asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi: maqsad, vazifalar, ustuvor yo‘nalishlar, resurslar, mexanizmlar, monitoring, korreksiya.

Prognostik yondashuv – bu ta’lim yoki pedagogik jarayonning kelajakdagi holati va natijalarini oldindan bashorat qilish, ehtimoliy o‘zgarishlarni prognozlash va shu asosda kelgusi faoliyatni rejalashtirishga asoslangan yondashuvdir. Prognostik yondashuvning tarkibiy elementlari quyidagilar: prognozlash, tendensiyalarni aniqlash, maqsadli rejalashtirish, muqobil variantlarni ko‘rib

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, farsayt yondashuv strategik va prognostik yondashuvlarga yaqin bo‘lsa-da, ulardan farq qiladi. Forsayt yondashuv faqat kelajakni bashorat qilish emas, balki kelajakda ta’lim istiqbollarini baholash va uning strategik yo‘nalishlarini belgilash hamda ehtimoliy kelajaklarni o‘rganish, ularning pedagoglar faoliyatiga ta’sirini aniqlashdir.

Shuningdek, bu jrayonda pedagoglar faoliyatining mehnat bozori talablariga moslashuvi, zamonaviy texnologiya, sun’iy intellekt kabilarning ijtimoiy hayotimizga tezkor kirib kelishi va ta’lim mazmunining o‘zgarishi hamda ularning jamiyat ehtiyojlarida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarga moslashtirib borilishi kuzatiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari, raqamli va AI savodxonligi, innovatsion pedagogik faoliyat, inklyuziv ta’lim kompetensiyalari, kommunikatsiya va hamkorlik qobiliyat, uzluksiz kasbiy rivojlanish, kelajak talablariga mos ravishda rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

Jamiyat va ta’lim tizimida pedagoglarning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘rgina omillar yuzaga keladi. Bular:

- raqamlashtirish;
- sun’iy intellekt;
- demografik o‘zgarishlar;
- globallashtirish;
- ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishi;
- mehnat bozorining o‘zgarishi;
- inklyuzivlik.

Forsayt yondashuv asosida pedagoglar faoliyatini kelajak ehtiyojlarga moslashtirish jarayonida pedagoglar quyidagi xususiyatlarga eg bo‘ladi:

- raqamli va inklyuziv ta’limni samarali tashkil eta oladigan pedagog;
- yuqori darajadagi raqamli va inklyuziv kompetensiyalar;

- maxsus kurslar va malaka oshirish;
- ehtiyojlarni diagnostika qilish va individual rivojlanish rejasini tuzish.

Demak, forsayt yondashuvi asosida pedagoglar faoliyatini kelajak ehtiyojlarga moslashtirish natijasida quyidagi yutuqlarga erishish mumkin. Bu natijalarni quyidagi jadvalda ifodalashga harakat qildik.

1-jadval

Hozirgi tendensiyalar	Kelajakdagi ehtimoliy talablar	Pedagog uchun zarur kompetensiya
Elektron ta'lim raqamlashgan ta'lim	Gibrid ta'lim	Pedagoglarning axborot va raqamli kompetensiyalari
Inklyuziv ta'lim	Individual ta'lim	Inklyuziv kompetentlik
Ta'limni personallashtirish	Individual o'quv traektoriyasi	Diagnostic va loyihalash kompetensiyasi
Uzluksiz ta'lim	Doimiy kasbiy yangilanish	Shaxsiy refleksiya kompetensiyasi

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, kelajakda ta'lim tizimi jarayonida gibrid ta'lim, individual ta'lim yuzaga kelib, pedagoglarning individual o'quv traektoriyasi kengayib boradi va ularning faoliyatida doimiy kasbiy yangilanish jarayoni kuzatiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, forsayt yondashuvi asosida pedagoglar faoliyatini kelajak ehtiyojlarga moslashtirish bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy muammolardan biri bo'lib, uning ilmiy-amaliy, didaktik va metodik xususiyatlari, aspektlarini aniqlash muhimdir. Zero, bugungi ta'lim tizimining kelajakdagi holatini baholash, pedagoglarni ushbu jarayonga tayyorlab borish, buning uchun esa ularni yanada zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021, – 464 б.
2. Абдуқодиров А.А. Таълимда инновацион технологиялар. –Тошкент: “Истеъдод”. 2008. – Б. 180.
3. Юлбарсова Х.А. Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш технологияси: пед. бўй. фал. док. (Phd) дисс. –Тошкент: 2018. – Б. 132.
4. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари: пед. фан. докт.. дисс. –Тошкент: 2019. – Б. 268

5. Ҳимматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёргарликни диагностика қилишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси. пед. фан. докт. . дисс. – Тошкент: 2018. – Б. 220.

6. Ҳамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси: пед. фан. докт. . дисс. –Тошкент: 2017. – Б. 337.

